

GLOBALASHUV DAVRIDA YOSHLARNING TARBIYASIGA MA'NAVIYATNING TA'SIRI

Ismoilov Turg'un

Nizomiy nomidagi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola, zamonaviy davrda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning dolzarb muammolariga bag'ishlanadi. Unda yosh avlodning ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va raqamli texnologiyalar davriga mos bo'lgan ehtiyojlari, ularning bo'sh vaqtini mazmunli ya'ni kitobga bo'lgan qiziqishini yanada orttirish, hamda milliy merosga bo'lgan hurmat-ehtiromi, ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, ilmiy va nazariy tadqiqotlar davomida navqiron avlodning, milliy va umumisoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati aniq faktlar asosida tahlil qilinadi. Aynan bu yoshdagi avlodning intellektual salohiyatini ma'naviy tarbiya bilan bog'liq holda rivojlantirishning eng muhim tizimlari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy tarbiya, zamonaviy davr, yosh avlod, yoshlar ma'naviyati, ijtimoiy faollik, ma'naviy immunitet, axborot xurujlari.*

Abstract: *This article is devoted to the current issues of enhancing the spirituality of youth in the modern era. It highlights the spiritual, social, and political needs of the younger generation in the age of digital technology, as well as the meaningful organization of their leisure time, specifically increasing their interest in reading and fostering respect for national heritage. Furthermore, during the scientific and theoretical research, the attitude of the younger generation toward national and universal values is analyzed based on concrete facts. The most important systems for developing the intellectual potential of the youth in connection with spiritual education are described.*

Keywords: *spiritual education, modern era, younger generation, youth spirituality, social activity, spiritual immunity, information attacks.*

Аннотация: *Данная статья посвящена актуальным проблемам повышения духовности молодежи в современную эпоху. В ней рассматриваются духовные, социальные, политические потребности молодого поколения, соответствующие эре цифровых технологий, а также вопросы содержательной организации досуга, в частности, повышения интереса к чтению и воспитания уважения к национальному наследию. Кроме того, в ходе научно-теоретических исследований на основе конкретных фактов анализируется отношение подрастающего поколения к национальным и общечеловеческим ценностям. Описаны важнейшие системы развития интеллектуального потенциала молодежи в сочетании с духовным воспитанием.*

Ключевые слова: *духовное воспитание, современная эпоха, подрастающее поколение, духовность молодежи, социальная активность, духовный иммунитет, информационные атаки.*

Zamonaviy globallashuv va shiddatli raqamli texnologiyalar davrida ma'naviyatni yuksaltirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda yosh avlod nafaqat real ijtimoiy muhitda, balki axborot tuzilmalari va ijtimoiy tarmoqlar yaratgan virtual makonda ham faoliyat olib bormoqda. Axborot oqimining cheksizligi, yoshlar ongini turli xil yot g'oyalar, ommaviy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarga zid bo'lgan tashqi xurujlar nishoniga aylantirib qo'ymoqda.

Bunday sharoitda yoshlarda har qanday axborotni saralash va unga tanqidiy baho berishini ko'nikmasini, ya'ni mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirish zarurati davlat va jamiyat oldida turgan oliy vazifadir.

Milliy taraqqiyotimizning asosi bo'lgan intellektual salohiyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bir-biriga bog'liq tarzda ya'ni uyg'unlashgan tarzda rivojlantirilmasa, oldimizda turgan asosiy oliy zarurat masalalarini yechishga asos topilmaydi. Yuqorida ahamiyat berilgan vazifaga asosiy yondashuv- bu yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, xususan, mutolaaga hamda baadiy adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshirish orqali ularning ma'naviy dunyosini boyitishning eng natijali yo'llaridan biri hisoblanadi, negaki adabiyotlar orqali ichki va tashqi g'oya ideallashadi. Bunday g'oyalar asosida "ma'naviy immunitet"ni o'z bosqichining yuqori cho'qqisiga ko'tarish, o'ziga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyatli tarzda ijro etish imkonini beradi. Ayniqsa, navqiron avlodning yana bir muhim jihati, milliy merosga bo'lgan hurmati va milliy qadriyatlarga sodiqligi orqali jamiyatda komil inson bo'lib shakllanishida, yuqoridagi jarayonlar asosiy poydevor vazifasini o'taydi. Ma'naviy jabhada yetuk hisoblangan yoshlar, o'zlarining ijtimoiy va siyosiy faolligi bilan davlatning buguni va kelajagi uchun shaxsiy hissasining ko'lamini orttirishda davom etaveradi. Agar yoshlar ongi milliy qadriyatlar va sog'lom dunyoqarashga ega bo'lmasa, unda zararli g'oyalar uchun ma'naviy bo'shliq yuzaga kelishi ilmiy tashviqotlarda o'z tasdig'ini topmoqda, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda faqatgina ta'lim muassasalari emas, balki oila instituti va mahalla hamjamiyatining o'zaro aloqalarida uzviy bog'liqlik sababli bu masalani hal qilishda asosiy rol o'ynaydi.¹¹¹ Ommaviy axborot vositalari rivojlangan bu asrda ma'naviyatga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Ma'naviyat- bu o'zi nima?. Ma'naviyat- bu shaxsning ichki ruhiy olami bo'lib, u milliy g'oya, adabiyot va tarixiy xotira asosida shakllanadi. Yoshlar tarbiyasida bu kata uchlik muhim rol o'ynaydi.

Bu funksiyalardan har biriga to'xtaladigan bo'lsak: Milliy g'oya yoshlar ongida begona va zararli mafkuralarni saralab oladigan o'ziga xos, tozalovchi vazifasini bajaradi. Badiiy adabiyot- bu o'sib kelayotgan avlodda nafaqat bilim, balki yuqori darajadagi mantiqning rivojlanishiga hamda estetik didning shakllana borishida astoydil ko'maklashadi. Bu esa ma'naviy yetuklikning birinchi va asosiy belgisidir.

Tarixiy xotira esa, ajdodlar merosi, ularning amalga oshirgan, buyuk sazovorga ega bo'lgan ishlari, shu bilan bir qatorda bizga meros tariqasida qoldirgan mashhur o'g'itlari ezgu ma'naviyatning rivojlana borishida poydevor vazifasini bajaradi.

Bugungi tinmay rivojlanish bosqichlari davom etayotgan bu davrda, yoshlar ma'naviyatini shakllantirish masalasi nafaqat milliy, balki dunyo miqyosidagi muhim

¹¹¹. Mirziyoyev Sh. M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi": T -Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-y. [216-218, b].

strategik vazifaga aylanib ulgurdi. Yuqori sahifalarda aytib o'tilgan milliy g'oya, adabiyot, tarixiy xotiraga e'tibor qaratilmasa jamiyatga foydasi tegadigan yoshlarda ma'naviy jabhadagi islohotlarni olib borish dolzarb muammoga aylanadi. Ma'naviy ruhsiz shakllangan inson esa ertangi kunda, o'zligini, tarixiy xotirasini, asrlar davomida o'git berib kelayotgan ajdodlarini unutib qo'yishi, esdan chiqarishi hech gap emas. Shu haqida, O'zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida, ma'naviyat- bu shunchaki axloqiy mezonlar majmuasi emas, balki yangi Renessans poydevorini quruvchi asosiy quvvat manbayidir deb ta'rif berganlar.¹¹² Bu jarayonda asosiy ko'zga tashlanayotgan milliy g'oya, yoshlar ongini tashqi mafkuraviy xatarlardan himoya qiluvchi ma'naviy filtr vazifasini o'taydi. Burungi zamonda barkamol avlodning o'zlikni anglashi, an'anaviy qadriyatlar va virtual reallik o'rtasidagi to'qnashuvda qay yo'sinda harakat qila olishi muhim hodisa hisoblanadi.¹¹³ Bunday murakkab sharoitda adabiyot asosiy vazifasini bajaradi. Badiiy adabiyot milliy manfaatlarni yoshlar qalbiga majburlovsiz, estetik zavq orqali singdirishning eng samarali vositasidir.¹¹⁴ Shunday ekan adabiyot bilan sug'oriladigan ma'naviyat, yangi davr shaxsining nafaqat axloqiy o'lchovi, shu bilan birga uning zamonaviy raqobatbardoshligini ta'minlovchi ma'rifiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ma'naviy tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish davr talabidir. Pedagog olimning asarlarida ta'kidlanganidek, milliy g'oya yoshlar qalbiga quruq nasihat orqali emas, balki jonli badiiy obrazlar va hayotiy misollar vositasida singdirilishi natijasida barqaror xarakterga aylanadi.¹¹⁵ Bu borada axborot madaniyati va media-savodxonlik masalasi barqaror rivojlanishning ajralmas bir bo'lagi sifatida joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, bevosita ma'naviy jarayonlarni bizga tahlil va oqilona fikrlar orqali faol tarzda o'rgatadigan falsafa fani bilan bog'lasak ham bo'ladi. Donolikni talqin etuvchi bu fan, ma'naviyat va san'at sintezi orqali, yoshlar psixologiyasidagi agressivlikni kamaytirishni ilmiy asoslab beradi.¹¹⁶ Zero, mumtoz adabiyotimizdagi insonparvarlik tamoyillari, bugungi kunda globallashgan, dunyoda kechayotgan "ma'naviy qashshoqlik" xavfiga eng maqbul variant sanaladi. Yaqinda nashr etilgan YUNESKOning "Ta'lim 2030" loyihasi hisobotida ham kelajak yoshlarida faqat texnik ko'nikmalar bilan emas, balki badiiy-ma'naviy tafakkur orqali qaror topadigan asosiy ko'nikmalarni rivojlantirish bosh va asosiy vazifa qilib belgilandi. Shunday ekan adabiyot bilan sug'oriladigan ma'naviyat, yangi davr shaxsining nafaqat axloqiy o'lchovi, shu bilan birga uning zamonaviy raqobatbardoshligini ta'minlovchi ma'rifiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Milliy-ma'naviyatimizning tarixiy ildizlari – xususan jadid bobolarimizning ma'rifatparvarlik g'oyalari - bugungi kun yoshlari uchun haqiqiy hayotiy dastur bo'lib xizmat qilishi lozim.¹¹⁷ Jadidlarimiz meros tariqasida qoldirgan ko'plab badiiy tafakkurga ega bo'lgan adabiyotlardan biz yosh avlod foydalansak, tanqidiy fikrlashimiz rivojlanadi, bu esa axborot makonidagi soxta xabarlarni ajratishda muhim immunitet vazifasini o'taydi.

¹¹² Saidov A.X. "Yangi O'zbekiston - inson huquqlari va ma'naviy yangilanish yo'lida": T - Toshkent: "Tasvir", 2021-y. [112-115, b].

¹¹³ Bekmurodov M. B. "Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi": T -Toshkent: "Fanniy-intelekt", 2020-y. [156-158, b].

¹¹⁴ Karimov B. "Jadid sarlavhalari": T -Toshkent: "O'zbekiston", 2020-y. [84-86, b].

¹¹⁵ Quronov M. "Ma'naviy tarbiya strategiyasi" T -Toshkent: "Sharq", 2021-y. [45-48, b].

¹¹⁶ Nazarov Q. "G'oyalar falsafasi": T -Toshkent: "O'zbekiston", 2021-y. [142-145, b].

¹¹⁷ Otamurodov S. "Globallashuv: milliy-ma'naviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyot": T -Toshkent: "Akademiya", 2021-y. [128-132, b].

Aytish joizki, miliy g'oya va adabiyot uyg'unligi yoshlarni nafaqat intellektual salohiyatli, shu bilan bir qatorda vatanparvar va komil inson qilib tarbiyalaydi. Binobarin, raqamli texnologiyalar va an'anaviy meros muvofiqligi, Uchinchi Renessansning insoniy omilini yaratishda asosiy yo'nalish bo'lib qolaveradi.

Uchinchi Renessansga asosiy xizmatchi va da'vogar bo'lib yoshlarimiz faoliyat olib boradi. Yuksak ma'naviyatli, madaniyatli va ma'rifatli o'sib kelayotgan avlodlarimiz hamda kelajakka foydasi tegadigan navqironlarimiz ko'payar ekan davlatimiz oldiga qo'ygan har bitta strategik, muhim maqsadlarga erishadi. Bu maqsadlarga erishish uchun mavzuimiz borasida yoritilgan har bir detalga e'tibor bilan qarashimiz zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, yoshlarning ma'naviyatga ta'sirini yanada uyg'otish uchun ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish bilan birga, zamonaviy g'oyalarga ega bo'lgan yangi adabiyotlarga, bu mumtoz asarlarning falasafiy mohiyatini sodda tilda tushuntirish metodikasini joriy etish lozim.

Mashhur zamonaviy adabiyotlarning mazmunini to'g'ri va noto'g'ri talqin etishda, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish albatta muallim, yoki boshqa bir kasb egasining muhim va asosiy vazifasidir. Shu mazmunni to'g'ri tushungan yosh, ertangi kunda o'z shogirdlari va o'quvchilariga o'zi bosib o'tgan yo'lni ko'rsata oladi. Hozirgi kunda yoshlarimizda tassavvur tushunchasi yo'q hodisaga aylanib bormoqda.

Shu tasavvurlar ostida rivojlantirish uchun bu avlodni kino, teatr va tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini orttirish kerak. Chunki yuqoridagi elementlar orqali ularda estetik olamni ko'ra olish qobiliyati rivojlanadi. Olamni to'g'ri ma'noda tushunish unga to'g'ri yondashish ularning komil inson bo'lib yetishishida albatta asqotadi.

Ma'naviy immunitet tushunchasini o'zida rivojlantira olgan shaxs, ma'naviyat nimaligini uni qanday yuksaltira olishni biladi. Jamiyatimizda shunday tizim yaratishimiz zarurki, har bir insonda ma'naviy immunitet tushunchasi paydo bo'lishi kerak. Ma'naviy immunitetni birgina mumtoz adabiyot orqali rivojlantira olmaymiz.

Bu tushunchani yuksak cho'qqilarga ko'tarish uchun nafaqat adabiyot, balki san'at, media-savodxonlik, milliy g'oya, ajdodlar merosi kabi tarmoqlarni bir-biriga uyg'un tarzda shakllantirishimiz lozim. Aynan bu sohalar hamda yo'nalishlar kelajak avlod uchun kerak va lozim.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi": T -Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-y. [216-218, b].
2. Saidov A. X. "Yangi O'zbekiston - inson huquqlari va ma'naviy yangilanish yo'lida": T -Toshkent: "Tasvir", 2021-y. [112-115, b].
3. Bekmurodov M. B. "Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi": T -Toshkent: "Fanniy-intelekt", 2020-y. [156-158, b].
4. Karimov B. "Jadid sarlavhalari": T -Toshkent: "O'zbekiston", 2020-y. [84-86, b].
5. Qur'onov M. "Ma'naviy tarbiya strategiyasi": T -Toshkent: "Sharq", 2021-y. [45-48, b].

6. Nazarov Q. “G‘oyalar falsafasi”: T -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021-y. [142-145, b].
7. Otamurodov S. “Globallashuv: milliy-ma’naviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyot”:
T -Toshkent: “Akademiya”, 2021-y. [128-132, b].